

O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR TAYYORLASH (1977–1978 YILLAR TAHLILI)

Ashirov Ulug'bek To'ychiyevich

Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat

muzeyi fond bo'limi mudiri

asirovulugbek8@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 1977–1978-yillarda O'zbekistonda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimining rivojlanish jarayoni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Qashqadaryo viloyati misolida ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi, o'quvchilar sonining ortishi va hududiy qamrovning oshgani yoritilgan. Shuningdek, sirtqi ta'lim tizimining kengayishi ishchi yoshlar malakasini oshirishdagi amaliy ahamiyati bilan izohlangan. Tadqiqot natijalari mazkur davrda shakllangan o'rta maxsus ta'lim tizimining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi o'rnini ochib beradi.

Kalit so'zlar: o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi, Qashqadaryo viloyati, PTU, kadrlar tayyorlash, sirtqi ta'lim, yoshlar ta'limi, iqtisodiy rivojlanish, malakali mutaxassis, sovet davri ta'lim tizimi.

Аннотация. В статье проанализированы процессы развития системы среднего специального и профессионально-технического образования в Узбекистане в 1977–1978 годах на основе статистических данных. На примере Кашкадарьинской области раскрыты тенденции расширения сети учебных заведений, увеличения числа учащихся и роста территориального охвата. Особое внимание уделено развитию заочного образования как фактора повышения квалификации рабочих и служащих. Результаты исследования показывают роль сформированной в этот период системы среднего специального образования в социально-экономическом развитии республики.

Ключевые слова: среднее специальное образование, профессионально-техническое обучение, Кашкадарьинская область, ПТУ, подготовка кадров, заочное обучение, молодежное образование, экономическое развитие, квалифицированные специалисты, система образования советского периода.

Abstract The article analyzes the development of the system of secondary specialized and vocational education in Uzbekistan during 1977–1978 based on statistical data. Using the example of Kashkadarya region, the paper highlights the expansion of educational institutions, the growth in the number of students, and the widening territorial coverage. Special attention is given to the rise of correspondence education as a means of improving workers' and employees' qualifications. The study

reveals the significant role of the secondary specialized education system established in this period in the socio-economic development of the republic.

Keywords: secondary specialized education, vocational training, Kashkadarya region, vocational school, workforce training, correspondence education, youth education, economic development, skilled specialists, Soviet education system.

1970–1980-yillar O‘zbekistonda ta’lim tizimi, xususan, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limining jadal rivojlangan davri bo‘ldi. Mamlakatda iqtisodiyotni malakali ishchi kuchi bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu bois o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tarmog‘i kengaydi, yangi o‘quv yurtlari tashkil etildi, mavjudlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida 1976–1978-yillar davomida kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim sohasida sezilarli o‘shish kuzatildi. Bu yillarda viloyatda professional-texnik bilim yurtlari soni 4 tadan 6 taga yetib, o‘quvchilar soni ham 2,4 mingdan 3,5 ming nafarga ko‘paydi. Aholining, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning kasb-hunar egallash imkoniyatlarining kengayishi jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirdi. Respublika miqyosida esa 1977–1978-yillarda o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini bitiruvchilar sonining 56 mingdan 60 ming nafarga oshishi ta’lim tizimining barqaror rivojlanishidan dalolat beradi[1].

1977 yilda respublika bo‘yicha 56 129 nafar o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchisi qayd etilgan bo‘lsa, 1978 yilda bu raqam 60 433 nafarga (+7,6%) yetgan.

Ta’lim shakllari bo‘yicha:

Yil	Kunduzgi bo‘lim	Kechki bo‘lim	Sirtqi bo‘lim	Jami
bitiruvchilar				
1977	40 394	3 747	11 988	56 129
1978	42 835	3 737	13 811	60 433

Bu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, asosiy qism kunduzgi bo‘limlar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ammo sirtqi ta’lim ulushining ortishi ishchi yoshlar va xizmatchilar malakasini oshirish siyosatining amaliy natijasi bo‘ldi.

1978 yilda jami o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida tahsil olganlardan deyarli 23 foizi sirtqi ta’lim tizimi orqali bilim olgan.

Qashqadaryo viloyati misolida kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim

Qashqadaryo viloyatida 1976–1978 yillar davomida ta’lim tizimi izchil rivojlandi.

1976/77 o‘quv yilida viloyatda 4 ta PTU faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1977/78 yilda ularning soni 6 taga (+50%) yetdi.

Shulardan 4 tasi qishloq hududlarida joylashgan bo‘lib, bu hududiy qamrov kengayganini anglatadi.

O‘quvchilar soni ham sezilarli oshdi:

1976/77 yilda — 2 433 nafar[2], 1977/78 yilda — 3 515 nafar o'quvchi ta'lim olgan[3].

Shulardan 2 263 nafari qishloq hududlaridagi PTUlarda tahsil olgan. Bu esa viloyatdagi yoshlarning asosiy qismi amaliy kasb egallash imkoniyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Qarshi, Shahrisabz va Kitob shaharlaridagi professional-texnik ta'lim muassasalari qurilish, mexanizatsiya, transport va qishloq xo'jaligi sohalari uchun amaliy malakaga ega kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, qizlar uchun tashkil etilgan pedagogik va tibbiy yo'nalishdagi uchilishelar ayollar ta'limi va jinsiy tenglik siyosatining amaliy natijasi bo'ldi.

1977–1978 yillarda Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'rta maxsus ta'lim muassasalarini bitirganlar soni ham o'sishda bo'lgan:

1977 yilda — 3 344 nafar, 1978 yilda — 3 812 nafar (+14%).

Shulardan 1978 yilda 2 996 nafari kunduzgi, 816 nafari sirtqi ta'lim bo'limlarini tugatgan.

Bu raqamlar viloyatdagi kadrlar siyosati va ishchi yoshlarni qayta tayyorlash ishlari samaradorligini ko'rsatadi.

1977–1978 yillarda Toshkent shahri va viloyati respublikada o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi.

1978 yilda Toshkent shahrida 17 ta PTU faoliyat ko'rsatib, ularda 13 777 nafar o'quvchi tahsil olgan.

Shuningdek:

Farg'ona viloyati — 15 ta,

Andijon viloyati — 15 ta,

Samarqand viloyati — 10 ta,

Buxoro viloyati — 14 ta professional-texnik o'quv yurtlari faol bo'lgan[4].

Bu muassasalar sanoat, transport, qurilish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari uchun amaliy malakaga ega mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilgan. Ular orqali har yili yuzlab kadrlar ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, 1977–1978-yillardagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mamlakatda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Qashqadaryo viloyatida o'quv yurtlari sonining va o'quvchilar kontingentining ortishi, ayniqsa qishloq hududlarida PTU tarmog'ining kengayishi yoshlarning amaliy kasb egallash imkonini yaratdi. Sirtqi ta'lim ulushining oshishi esa ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan ishchi yoshlarning malakasini oshirishga xizmat qildi. Umuman olganda, bu davrda shakllangan o'rta maxsus ta'lim tizimi O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida malakali kadrlar tayyorlashning asosiy bazasiga aylandi hamda keyingi davrlarda ta'lim siyosatining izchil rivojlanishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmirzayeva O. Urushdan keyingi dastlabki yillarda maktabgacha talim muassasalarining moddiy - texnik taminoti. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali .2023, 15-son
2. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), F.1619, r.11, 8-12-ish,18-varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), F.1619, r.11, 8-23-ish,36-varaq.
4. Мактабгача тарбия справочниги.— Т., 1974. 62-63 бетлар.